

PAPER

TARBIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich^{1,*}

¹, ass.o‘qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi, Samarqand, O‘zbekiston.

* norbotirovich@mail.ru

Abstract

Mazkur maqolada tarbiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari, o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy kamolotini ta‘minlashdagi o‘rni hamda interfaol metodlarning samadorligi tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etishning afzalliklari va amaliy tajribalari yoritilgan.

Key words: tarbiya, innovatsion texnologiya, pedagogik jarayon, interfaol metod, kreativlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

KIRISH

XXI asrda ta‘lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlari insoniyat sivilizatsiyasining intellektual, texnologik va ma‘naviy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, barkamol insonni shakllantirish, yosh avlodni yuksak ma‘naviyat va axloqiy qadriyatlarga ega etib tarbiyalashga tayanadi. Shu boisdan ta‘lim tizimida, xususan, tarbiya fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston

Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham ushbu masalaga alohida urg‘u berilib, “Ta‘limning asosiy maqsadi — shaxsni har tomonlama kamol toptirish, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy bilimlarga ega insonni tarbiyalash” deb ta‘kidlanadi [1].

Ushbu maqsadga erishishning samarali yo‘li sifatida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Prezident Sh. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularning tafakkurini yangicha asosda shakllantirish, ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng

Compiled on: December 17, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

joriy etish — bizning strategik maqsadimizdir” [2]. Ushbu fikr ta’limning barcha bosqichlarida, ayniqsa, tarbiya fanida innovatsion yondashuvning dolzarbligini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqot tarbiya fanini o’qitishda innovatsion texnologiyalarning qo’llanish samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo’lib, kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy-uslubiy metodlar qo’llandi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi ilmiy yo’nalishlarni o’z ichiga oladi: 1. Nazariy-metodik tahlil. Tadqiqotning dastlabki bosqichida tarbiya fanining mazmuni, kompetensiyalar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar bo’yicha mavjud ilmiy adabiyotlar o’rganildi. Bunda:

pedagogik innovatsiyalar nazariyasi;
shaxsga yo’naltirilgan ta’lim yondashuvlari;
interaktiv metodlar va konstruktivizm tamoyillari;

asosiy metodologik manbalar sifatida tahlil qilindi.

Shuningdek:

O’zbekistonning “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni;
O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya masalalariga oid farmon va qarorlari;

Milliy o’quv dasturining tarbiya fani bo’limi kabi me’yoriy-huquqiy hujjatlar ham nazariy asos sifatida o’rganildi.

2. Pedagogik kuzatuv. Tadqiqot amaliy bosqichida 7–11-sinflarda tarbiya fanidan o’tkazilgan darslar jarayonida innovatsion texnologiyalarning real qo’llanilish holati tizimli kuzatildi. Kuzatuv quyidagi parametrlarga e’tibor qaratdi:

o’quvchilarning darsga jalb etilish darajasi,
o’quvchilar faoliyatining interaktivlik ko’rsatkichlari,

mavzuni tushunish va qayta yetkazish ko’nikmalari,

o’qituvchining AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi,

guruhda ishlash, muloqot va bahs-munozara madaniyati.

Kuzatuv natijalari maxsus kuzatuv varaqalari asosida qayd etildi.

3. Eksperimental va yarim-eksperimental yondashuv. Innovatsion texnologiyalarning ta’sir

kuchini aniqlash uchun 2 bosqichli pedagogik tajriba tashkil etildi:

Eksperimental guruh. AKT, gamifikatsiya, media-ta’lim, LOYIHA metodi, “aqliy hujum”, “klaster”, “blits-so’rov” kabi texnologiyalar asosida darslar tashkil etildi.

Nazorat guruhi. An’anaviy tushuntirish, suhbat va izohli o’qitish metodlari qo’llandi. Tajriba davomiyligi: 1 o’quv choragi (9 hafta).

NATIJALAR

Zamonaviy pedagogik yondashuvda “tarbiya” tushunchasi keng ma’noda talqin qilinadi. U o’quvchining faqat bilim olish jarayonini emas, balki uning axloqiy, ijtimoiy, estetik, huquqiy, ekologik jihatdan kamol topishini ham qamrab oladi. Shunday ekan, tarbiya fanini o’qitishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish — shaxsni har tomonlama rivojlantirishning asosiy omili sifatida namoyon bo’ladi. Pedagog olimi O. Hasanboyeva bu borada shunday fikr bildiradi:

“Innovatsion texnologiyalarni o’quv jarayoniga tatbiq etish, avvalo, o’quvchi shaxsining individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’limni faollashtirish va o’qitish jarayonini hamkorlikka asoslashga xizmat qiladi” [3]. Shuningdek, professor J. Yo’ldoshevning ta’kidlashicha, “Innovatsion ta’lim jarayonining markazida o’quvchi shaxsining faolligi, ijodiy fikrlash qobiliyati va mustaqil o’rganish ko’nikmalarini rivojlantirish turadi” [4]. Bu esa, tarbiya darslarida o’qituvchining roli o’zgarishini, u endilikda bilim manbai emas, balki yo’lboshchi, tashkilotchi va motivator sifatida faoliyat yuritishini anglatadi.

O’zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Yangi O’zbekiston – yangi ta’lim” konsepsiyasi asosida tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, kreativ yondashuvlarni keng joriy etish choralari ko’rilmoqda. Bu borada “Pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish konsepsiyasi”da quyidagicha qayd etilgan:

“Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, differensial yondashuvni kuchaytirish, o’quvchilarni mustaqil o’rganish va hamkorlikda ishlashga o’rgatish orqali ta’lim sifatini oshiradi” [5]. Tarbiya fanida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi

shundaki, bu jarayon o'quvchilarni faqat bilim oluvchi emas, balki o'z fikrini ifoda etuvchi, hayotiy muammolarni tahlil qila oluvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Bu esa milliy ta'lim tizimini xalqaro mezonlarga moslashtirish yo'lida muhim qadamdir. Bundan tashqari, bugungi globallashtirish sharoitida yosh avlod turli axborot oqimlari ta'sirida shakllanmoqda. Shuning uchun tarbiya fani o'qituvchisi innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarda axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ongni mustahkamlash ko'nikmalarini rivojlantirishi zarur. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalar nafaqat ta'limning sifati, balki uning tarbiyaviy samaradorligini ham oshiradi. Shunday qilib, tarbiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash — bu pedagogik faoliyatni yangicha tafakkur asosida tashkil etish, o'quvchi shaxsini markazga qo'yish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni zamonaviy metodlar orqali singdirish demakdir.

So'nggi yillarda pedagogika sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Innovatsion texnologiyalar — bu o'qitish jarayonida ilg'or, samarali va kreativ yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi vositalar tizimidir. Mazkur texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangilik kiritish, o'quvchini faqat tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishga qaratilgan bo'ladi [6]. Tarbiya fanining mazmuni, eng avvalo, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Shu bois bu fan an'anaviy, monologik dars usullaridan ko'ra, o'zaro muloqot va faol o'rganishga asoslangan metodlar orqali o'tilganda samarali bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalar aynan shunday yondashuvni ta'minlaydi. Tarbiya darslarida bu yondashuv o'quvchiga faqat tayyor bilim emas, balki hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, o'z fikrini asoslash, tanqidiy yondashish imkonini yaratadi. Innovatsion texnologiyalarning tarbiya fanidagi o'rni shundaki, ular darsning shakli va mazmunini tubdan o'zgartiradi. Dars endilikda faqat ma'ruzaviy tarzda emas, balki interfaol mashg'ulot, muammoli vaziyat, bahs-munozara, guruhli ish, loyiha

asosida o'qitish kabi faol metodlarga asoslanadi. Bunday yondashuvlar natijasida o'quvchilar o'z fikrini mustaqil ifodalashni, boshqalar fikrini hurmat qilishni, ijtimoiy mas'uliyatni his etishni o'rganadi. Masalan, "Halollik — eng oliy fazilat" mavzusidagi tarbiya darsida "Aqliy hujum" metodidan foydalanish orqali o'quvchilar hayotiy misollar orqali halollik va insofilikning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qiladilar. Bu jarayon ularida nafaqat axloqiy bilim, balki mustaqil xulosa chiqarish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish tarbiya fanida o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Multimedia taqdimotlar, video lavhalar, elektron testlar, onlayn baholash tizimlari dars jarayonini jonlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol va vizual vositalardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi 30–40 foizga yuqori bo'ladi [7].

O'zbekiston Respublikasi sobiq Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish konsepsiyasi"da qayd etilishicha, "Innovatsion texnologiyalar o'qitish jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish, hamda o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi" [8]. Tarbiya fanida innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'qituvchidan yuqori darajada kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Chunki innovatsion yondashuv — bu faqat yangi usulni qo'llash emas, balki ta'lim falsafasini o'zgartirish, ya'ni o'qituvchining o'z rolini "bilim manbai"dan "yo'l boshchi va hamkor"ga aylantirishdir. Tarbiya fanida innovatsion texnologiyalarning o'rni quyidagi jihatlarida yaqqol namoyon bo'ladi: Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish. Har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirish. Darslar orqali o'quvchilarda ijobiy fazilatlar, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlarga hurmat shakllantiriladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish. O'quvchilarni yangicha yondashuvlar bilan fikrlashga, hayotiy muammolarga ijodiy yechim topishga o'rgatadi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash madaniyatini shakllantirish. O'quvchilar kompyuter, internet,

taqdimot vositalaridan foydalangan holda axborotni tahlil qilishni o'rganadilar.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish. O'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etgan sari, ularning o'zlashtirish darajasi ham ortadi.

MUHOKAMA

Pedagogik adabiyotlarda innovatsion metodlar deganda, ta'lim jarayoniga yangi g'oyalar, shakl va texnologiyalarni joriy etish orqali o'qitish samaradorligini oshiruvchi usullar tushuniladi. Ular orasida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish (project-based learning), klaster, "Aqliy hujum", "Insert", "Debat", "Rol o'ynash" kabi usullar tarbiya darslarida eng ko'p qo'llaniladi. Raqamli davrda o'quvchi yoshlar uchun axborot texnologiyalari hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu bois tarbiya darslarida multimedia taqdimotlari, interaktiv platformalar (Padlet, Mentimeter, Kahoot, Quizizz), videoroliklardan foydalanish ta'limning qiziqarli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida sodir bo'layotgan tub islohotlar, avvalo, pedagoglardan yangicha fikrlash, ijodkorlik va texnologik madaniyatni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, tarbiya fani mazmuniga innovatsion metodlarni tatbiq etish nafaqat o'quvchilarning bilim sifatini oshiradi, balki ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini ham boyitadi.

XULOSA

Yuqorida amalga oshirilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, tarbiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb va zarur jarayonlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim mazmunining kompetensiyaviy modelga o'tishi, o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, raqamli muhitda samarali faoliyat yurita olishi tarbiyaviy jarayonni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etmoqda.

Birinchidan, tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar tarbiya fanining mohiyati – shaxsni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi kuchli metodik vosita ekanini isbotladi. Interaktiv metodlar, gamifikatsiya, media-ta'lim

va loyihaviy yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mas'uliyat, kommunikativ madaniyat, muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy faollik va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabat kabi asosiy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, eksperimental va nazorat guruhlarini o'rtasidagi natijalar farqi innovatsion texnologiyalar tarbiyaviy jarayonni interaktiv va subyekt-subyekt munosabatiga asoslangan jarayonga aylantirishini tasdiqladi. O'quvchilarning darsga jalb qilinishi, bilimlarni anglash, mavzuni hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta bilish qobiliyati sezilarli oshgani kuzatildi. Bu esa tarbiya darslarida o'quvchi faoliyatini faollashtirish – muvaffaqiyatning asosiy omili ekanini yana bir bor ko'rsatdi.

Uchinchidan, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma innovatsion texnologiyalar motivatsiyani oshirish, o'quv jarayonini qiziqarli va mazmunli qilish, shuningdek, o'qituvchi-o'quvchi muloqotini kuchaytirish kabi muhim omillarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. O'qituvchilarning aksariyati bu texnologiyalar tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy-emotsional samaradorligini oshirishini e'tirof etdilar. To'rtinchidan, innovatsion texnologiyalar tarbiyaviy ta'sirning sifat ko'rsatkichlarini oshiradi: o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, emotsional intellekti, axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalari, jamoada ishlash mahorati va o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatlari kuchayadi. Bularning barchasi bugungi yoshlar uchun zarur bo'lgan hayotiy kompetensiyalardir.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi islohotlarga oid qaror va farmonlarida ta'kidlanganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun zamonaviy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan yoshlar kerak". Bunday yoshlarni tarbiyalash esa, o'z navbatida, o'qituvchining innovatsion yondashuvini talab etadi. Tarbiya fanida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar — bu faqat o'qitish usuli emas, balki ta'lim falsafasining yangilanishidir.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Hasanboyeva O. Innovatsion pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.
4. Yo'ldoshev J. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
6. Karimova R. Zamonaviy ta'limda innovatsion metodlarning roli. // "Pedagogika va psixologiya" jurnali, №3, 2021.
7. Yo'ldoshev J., Hasanboyeva O. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.
8. To'raeva M. Axborot texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida. – Toshkent, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
10. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2017.